



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 44

Toshkent sh.

**Hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan
xodimlar soni intervalli o‘zgaruvchan qatorlarining
tarkibiy o‘rtacha miqdorlarini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan xodimlar soni intervalli o‘zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o‘rtacha miqdorlarini hisoblash bo‘yicha uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan xodimlar soni intervalli o‘zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o‘rtacha miqdorlarini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 29-iyundagi “Hisoblangan ish haqi miqdorlari bo‘yicha taqsimlangan xodimlar soni intervalli o‘zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o‘rtacha miqdorlarini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida” 18- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov